
Mutaxassislik fanlarining o‘qitilish sifati va samaradorligi bo‘yicha so‘rovnoma

2026-yil 4–8-may kunlari Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabalaridan mutaxassislik fanlarining o‘qitilish sifati va samaradorligini baholash maqsadida google formsda so‘rovnoma o‘tkazildi. Mazkur so‘rovnomada **3545 nafar** talaba qatnashib, **21 ta savol** bo‘yicha javoblar olindi va tahliliy hisobot qilindi. Jumladan:

1. So‘rovnomada ishtirok etgan talabalar tarkibi bo‘yicha




So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, jami **3545 nafar talaba** so‘rovnomada ishtirok etgan. Respondentlarning fakultetlar kesimida taqsimoti **Filologiya fakulteti talabalari 1051 nafarni** tashkil qilgan. Shuningdek, **Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakultetidan 791 nafar**, **Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakultetidan 447 nafar** hamda **Tabiiy fanlar fakultetidan 374 nafar** talaba qatnashgan.

Bundan tashqari, **Aniq fanlar oliy maktabidan 336** nafar, **Tarix fakultetidan 220 nafar**, **Professional ta’lim va san’at fakultetidan 207 nafar** hamda **Harbiy ta’lim fakultetidan 119 nafar** respondent so‘rovnomada ishtirok etgan.


2. So‘rovnoma ishtirokchilarining kurslar bo‘yicha taqsimoti

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismini **1-kurs va 2-kurs talabalari** tashkil etgan. Jumladan, **1-kursdan 1117 nafar, 2-kursdan esa 1064 nafar** talaba so‘rovnomada ishtirok etgan. Shuningdek, **3-kurs talabalari soni 723 nafarni, 4-kurs talabalari 595 nafarni** tashkil qilgan. **5-kurs talabalari 46 nafarni** tashkil etgan.




3. Ta’lim shakli bo‘yicha:

Ta’lim shakli bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar natijasida respondentlarning ko‘pchiligi **kunduzgi ta’lim** shaklida tahsil olayotgani aniqlandi. Ularning ulushi jami respondentlarning **92,3 % ini, ya’ni (3271) nafarni** tashkil etdi. Qolgan respondentlarning **4,3 % ini (153 nafar) sirtqi**, **1,4 % ini (50 nafar) kechki** hamda **2 % ini (71 nafar) magistratura** ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar tashkil etdi. Mazkur natijalar so‘rovnomada asosan kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan talabalar faol ishtirok etganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sirtqi, kechki va magistratura ta’lim shakllarida tahsil olayotgan talabalar ulushining pastligi ushbu toifadagi talabalarning fikr va ehtiyojlarini chuqurroq o‘rganish zarurligini anglatadi.




4. Jins bo‘yicha

So‘rovnoma ishtirokchilarining jins kesimidagi tahliliga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismini **ayol** talabalar tashkil etdi. Jumladan, ayol respondentlar ulushi **86,5 % (3066 nafar)** ni tashkil etgan bo‘lsa, **erkak** respondentlar ulushi **13,5 % (479 nafar)** ni qayd etdi. Mazkur natijalar pedagogik yo‘nalishlarda ayol talabalar ulushi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq erkak talabalar ulushining pastligi ayrim yo‘nalishlarda gender balansini ta’minlash hamda pedagogik sohada erkak mutaxassislar ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralarni ko‘rish zarurligini anglatadi.




	Respondent foizi	Respondent soni
Ayol	86,50%	3066
Erkak	13,50%	479


5. Ta’lim yo‘nalishini tanlash omili bo‘yicha




Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning **76,7 % i (2718 nafar) ta’lim olayotgan yo‘nalishini o‘z xohishi asosida tanlaganligini** bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **20,6 % i (732 nafar) yo‘nalishni qisman o‘z xohishi bilan tanlaganini** qayd etgan bo‘lsa, **2,7 % i (95 nafar) ushbu yo‘nalishni o‘z xohishisiz tanlaganini** ma’lum qilgan. Ushbu natijalar talabalarning aksariyati kasbiy yo‘nalishni ongli ravishda tanlaganligini ko‘rsatadi. Biroq respondentlarning qariyb chorak qismi yo‘nalishni to‘liq ishonch bilan tanlamagani kasbiy yo‘naltirish tizimi hamda abituriyentlar bilan ishlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.




6. Mutaxassislik fanlariga bo‘lgan qiziqish darajasi bo‘yicha




Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismi **mutaxassislik fanlariga bo‘lgan qiziqishi yuqori ekanligini bildirgan.** Jumladan, talabalarning **65,2 % i (2310 nafar) mutaxassislik fanlariga qiziqishi yuqori ekanligini** qayd etgan bo‘lsa, **33,4 % i (1184 nafar) qiziqish darajasi o‘rtacha ekanligini** bildirgan. Respondentlarning **1,4 % i (51 nafar) esa mazkur fanlarga bo‘lgan qiziqishi past ekanligini** ko‘rsatgan. Mazkur natijalar talabalar orasida mutaxassislik fanlariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning uchdan bir qismidan ortig‘i qiziqish darajasini o‘rtacha deb baholagani ayrim fanlarda o‘qitish metodikasi, interaktiv yondashuvlar hamda amaliy mashg‘ulotlar sifatini takomillashtirish zarurligini anglatadi.






7. Mutaxassislik fanlarining o‘quv maqsadi bo‘yicha


So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **80 % i (2835 nafar) mutaxassislik fanlarining o‘quv maqsadi to‘g‘ri yo‘naltirilganligini** bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **18,7 % i (663 nafar) ushbu masalada qisman ijobiy fikr** bildirgan bo‘lsa, **1,3 % i (47 nafar) fanlarning o‘quv maqsadi yetarli darajada to‘g‘ri yo‘naltirilmaganligini** qayd etgan. Mazkur natijalar mutaxassislik fanlari mazmuni va maqsadlari talabalarning kasbiy ehtiyojlariga mos shakllantirilayotganini ko‘rsatadi. Biroq respondentlarning qariyb beshdan bir qismi faqat qisman qoniqish bildirgani ayrim fanlarning mazmuni va amaliy yo‘nalganligini qayta ko‘rib chiqish zarurligini anglatadi.




8. Fanlarni mustaqil o‘rganishga ajratiladigan vaqt bo‘yicha




Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismi **fanlarni mustaqil o‘rganishga muntazam vaqt ajratishini** bildirgan. Jumladan, talabalarning **53,6 % i (1900 nafar) har kuni**, **36,4 % i (1290 nafar) esa haftasiga bir necha marta** mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanishini qayd etgan. Shu bilan birga, respondentlarning **3,2 % i (115 nafar)** haftasiga bir marta, **6,1 % i (216 nafar) kamdan-kam hollarda** mustaqil ta’limga vaqt ajratishini bildirgan bo‘lsa, **0,7 % i (24 nafar) umuman vaqt ajratmasligini** ma’lum qilgan. Ushbu natijalar talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalari shakllanayotganini ko‘rsatadi. Biroq ayrim talabalar orasida mustaqil ta’lim faolligining sustligi ularning o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda mustaqil ishlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.



9. Mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar berilishi bo‘yicha




So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **68,9 % i (2441 nafar)** mutaxassislik fanlari doirasida mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar doimiy ravishda berilishini bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **29,3 % i (1040 nafar)** bunday topshiriqlar ba’zan berilishini qayd etgan. Respondentlarning **1,8 % i (63 nafar)** esa bunday topshiriqlar umuman berilmasligini ma’lum qilgan. Mazkur natijalar o‘quv jarayonida talabalarni tahliliy va mustaqil fikrlashga yo‘naltirishga e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning qariyb uchdan bir qismi topshiriqlar faqat ba’zan berilishini bildirgani barcha fanlarda interaktiv va kreativ topshiriqlardan foydalanish darajasi bir xil emasligini ko‘rsatadi.




	Aniq fanlar oliy maktabi	Filologiya	Harbiy ta'lim	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim	Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim	Professional ta’lim va san’at	Tabiiy fanlar	Tarix
Ba’zan	122	344	15	122	212	59	89	77
Doim	202	691	102	320	567	145	280	134
To‘liq yetarli					1			
Yo‘q	12	16	2	5	11	3	5	9


10. O‘qituvchilarning talabalar savollariga javob berishi bo‘yicha



So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **82,6 % i (2929 nafar)** o‘qituvchilar talabalar tomonidan berilgan savollarga har doim to‘liq javob berishini bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **16,2 % i (574 nafar) ayrim hollarda** javoblar yetarli darajada berilishini qayd etgan bo‘lsa, **1,2 % i (43 nafar) javoblar kam berilishini** ma’lum qilgan. Mazkur natijalar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq ayrim respondentlarning qisman salbiy fikrlari ayrim hollarda kommunikativ yondashuv va individual ishlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.




11.O‘qituvchilarning zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanishi bo‘yicha



Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning **48,7 % i (1726 nafar)** barcha o‘qituvchilar zamonaviy o‘qitish metodlaridan doimiy foydalanishini bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **28,7 % i (1017 nafar)** ko‘pchilik o‘qituvchilar ushbu metodlardan foydalanishini qayd etgan. Respondentlarning **18,7 % i (663 nafar**) esa ayrim o‘qituvchilar foydalanishi, ayrimlari esa foydalanmasligini bildirgan. Respondentlarning **3,9 % i (139 nafar)** zamonaviy metodlardan foydalanish darajasi past yoki umuman mavjud emasligini qayd etgan. Mazkur natijalar universitetda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ijobiy tendensiya mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq respondentlarning qariyb chorak qismi zamonaviy metodlardan foydalanish darajasini yetarli emas deb baholagani ayrim pedagoglarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.


11. O‘qituvchilar dars jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlaridan qanchalik foydalanadi?




	Aniq fanlar oliy maktabi	Filologiya	Harbiy ta'lim	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim	Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim	Professional ta’lim va san’at	Tabiiy fanlar	Tarix
Ba’zi o‘qituvchilar foydalanadi, ba’zilari yo‘q	73	225	7	99	146	37	36	40
Barcha o‘qituvchilar doim foydalanadi	138	471	100	215	383	114	207	99
Juda kam o‘qituvchilar foydalanadi	18	36	1	9	15	5	7	15
Ko‘pchilik o‘qituvchilar foydalanadi	105	307	10	118	243	51	121	62
Umuman foydalanmaydi	2	12	1	6	4		3	4


12. Amaliy mashg‘ulotlar soni va sifati bo‘yicha

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **72,6 % i (2574 nafar)** amaliy mashg‘ulotlar soni va sifati o‘zlari uchun **to‘liq yetarli** ekanligini bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **24,9 % i (883 nafar)** amaliy mashg‘ulotlarni **qisman yetarli** deb baholagan. Respondentlarning **2,5 % i (88 nafar)** esa amaliy mashg‘ulotlar soni va sifati **yetarli emasligini** qayd etgan. Mazkur natijalar o‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Biroq respondentlarning qariyb chorak qismi amaliy mashg‘ulotlarni faqat qisman yetarli deb baholagani ayrim fanlarda amaliy tayyorgarlik hajmi va sifatini oshirish zarurligini anglatadi.






13. O‘rgatilayotgan bilimlarni real hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘yicha




Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning **69,6 % i (2466 nafar)** o‘rgatilayotgan bilimlarni real hayotda **bemalol qo‘llash mumkinligini** bildirgan. Shuningdek, **respondentlarning 28,5 % i (1009 nafar) bilimlarni qisman qo‘llash mumkinligini** qayd etgan. Respondentlarning **2 % i (70 nafar) esa o‘rgatilayotgan bilimlarni real hayotda deyarli qo‘llab bo‘lmasligini** bildirgan. Mazkur natijalar ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq respondentlarning **qariyb 30 % i bilimlarni faqat qisman** qo‘llash mumkinligini bildirgani ayrim fanlarda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.




	Aniq fanlar oliy maktabi	Filologiya	Harbiy ta'lim	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim	Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim	Professional ta’lim va san’at	Tabiiy fanlar	Tarix
Ha, bemalol qo‘llash mumkin	201	711	105	325	554	153	267	150
Qisman qo‘llash mumkin	124	323	13	116	220	49	100	64
Yo‘q, deyarli qo‘llab bo‘lmaydi	11	17	1	6	17	5	7	6

14. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi bo‘yicha





Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning **64,3 % i (2279 nafar) nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchli ekanligini** bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **33,6 % i (1193 nafar) ushbu bog‘liqlik qisman mavjudligini** qayd etgan. Respondentlarning **2,1 % i (73 nafar) esa nazariya va amaliyot o‘rtasida yetarli bog‘liqlik mavjud emasligini** bildirgan. Mazkur natijalar ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qilishga e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim respondentlarning qisman qoniqish bildirishi ayrim fanlarda amaliy mashg‘ulotlar ulushi va real kasbiy vaziyatlarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.




	Aniq fanlar oliy maktabi	Filologiya	Harbiy ta'lim	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim	Pedagogik a-psixologiya va inklyuziv ta’lim	Professional ta’lim va san’at	Tabiiy fanlar	Tarix
Bog‘lanmagan	6	18	1	7	21	1	6	13
Kuchli bog‘langan	193	671	100	295	486	142	272	122
Qisman bog‘langan	137	362	18	145	284	64	96	85

15. O‘quv dasturining mehnat bozori talablariga mosligi bo‘yicha So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **60 % i (2127 nafar) o‘quv dasturi mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelishini** bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **37,2 % i (1319 nafar) o‘quv dasturi qisman mos ekanligini** qayd etgan. **Respondentlarning 2,8 % i (100 nafar) esa o‘quv dasturi mehnat bozori talablariga mos emasligini** bildirgan. Mazkur natijalar universitetda ta’lim dasturlarini zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha ijobiy ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Biroq qisman qoniqish bildirgan respondentlar ulushi ayrim yo‘nalishlarda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni kuchaytirish hamda ish beruvchilar talablari asosida o‘quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish zarurligini anglatadi.






16. Oraliq va yakuniy imtihon savollarining o‘tilgan dars mazmuniga mosligi bo‘yicha




So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **70,9 % i (2513 nafar) oraliq va yakuniy imtihon savollari o‘tilgan dars mazmuniga to‘liq mos kelishini** bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **26,6 % i (945 nafar) imtihon savollari qisman mos ekanligini** qayd etgan. Respondentlarning 2,5 **% i (87 nafar) esa imtihon savollari dars mazmuniga mos emasligini** bildirgan.

Mazkur natijalar universitetda baholash jarayonlarini o‘quv dasturi va fan mazmuni bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ijobiy holat mavjudligini ko‘rsatadi. Talabalarning aksariyati imtihon savollari o‘tilgan mavzular asosida shakllantirilayotganini e’tirof etgan. Shu bilan birga, qisman qoniqish bildirgan respondentlar ulushi ayrim fanlarda baholash mezonlari, savollar murakkabligi hamda mavzular bilan muvofiqlik darajasini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Ayrim talabalar tomonidan imtihon savollarining mos emasligi qayd etilgani esa baholash jarayonida shaffoflik va metodik yondashuvlarni kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.




17. Talabalar duch kelayotgan asosiy muammolar bo‘yicha

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlar ta’lim jarayonida duch kelayotgan asosiy muammolar sifatida bir nechta omillarni qayd etgan. **Ushbu savolda bir nechta javob berish imkoni va respondent o‘z fikrini bildirish imkoni mavjud bo‘lganligi uchun umumiy natijalar hisoblandi.**



Eng yuqori ko‘rsatkichni **fanlarning murakkabligi** tashkil etib, ushbu variantni respondentlarning **45,9 % i (1627 nafar) tanlagan.** Shuningdek, respondentlarning **29,8 % i (1055 nafar) motivatsiya bilan bog‘liq muammolar** mavjudligini bildirgan bo‘lsa, **27,1 % i (960 nafar) o‘quv yuklamasi va ta’lim jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarni** qayd etgan. Bundan tashqari, respondentlarning **21 % i (744 nafar) ayrim tashkiliy va metodik muammolar mavjudligini** ko‘rsatgan. Respondentlarning **9,9 % i (351 nafar) esa o‘qitish sifati bilan bog‘liq kamchiliklarni** bildirgan.

Mazkur natijalar ta’lim jarayonida ijobiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ayrim tizimli muammolar ham mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, fanlarning murakkabligi va motivatsiya bilan bog‘liq muammolar talabalarga metodik yordam, akademik maslahat hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, o‘qitish sifati bo‘yicha bildirilgan fikrlar ayrim fanlarda dars metodikasini, interaktiv yondashuvlarni hamda talabalar bilan individual ishlash tizimini takomillashtirish lozimligini ko‘rsatadi. Ushbu holatlar ta’lim sifati monitoringini muntazam olib borish hamda talabalar fikri asosida amaliy choralarni ishlab chiqish muhim ekanligini tasdiqlaydi.




18. Mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarining bilim darajasi bo‘yicha

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismi mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarining bilim darajasini yuqori baholagan. Jumladan, respondentlarning **77,4 % i (2744 nafar)** o‘qituvchilarning bilim darajasini **81–100 % oralig‘ida baholagan** bo‘lsa, **19,9 % i (706 nafar) 61–80 % darajasida baholagan**. Shuningdek, respondentlarning **1,9 % i (67 nafar) o‘qituvchilar bilim darajasini 41–60 % oralig‘ida** deb ko‘rsatgan. Respondentlarning **0,8 % i (28 nafar) esa**

o‘qituvchilar bilim darajasini 40 % va undan kam deb baholagan.

Mazkur natijalar universitetda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilarning kasbiy bilim va kompetensiyalari talabalar tomonidan asosan ijobiy baholanayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori baholarning ustunligi pedagoglarning o‘z fanini chuqur bilishi hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim respondentlarning o‘rta va past baho berishi ayrim fanlarda pedagoglarning metodik tayyorgarligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qilish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa professor-o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish va innovatsion yondashuvlarni kengroq joriy etish muhimligini anglatadi.

18. Mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarining bilim darajasini baholang:





	Aniq fanlar oliy maktabi	Filologiya	Harbiy ta'lim	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim	Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim	Professional ta’lim va san’at	Tabiiy fanlar	Tarix
40% va undan kam	2	6	3	6	3	2	2	4
41–60%	9	20		9	13	7	6	3
61–80%	79	204	12	108	165	33	46	59
81–100%	246	821	104	324	610	165	320	154

19. Mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha

Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning **48,8 % i (1730 nafar) mutaxassislik fanlarini 61–80 % darajada o‘zlashtirganini** bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **39,6 % i (1404 nafar) fanlarni 81–100 % darajada o‘zlashtirganini** qayd etgan. Respondentlarning 9,8 % i (347 nafar) o‘zlashtirish darajasini 41–60 % oralig‘ida baholagan bo‘lsa, **1,7 % i (62 nafar) fanlarni 40 % va undan kam darajada o‘zlashtirganini** bildirgan.


Mazkur natijalar talabalar orasida mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish darajasi umumiy jihatdan ijobiy ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori va o‘rta yuqori ko‘rsatkichlarning ustunligi talabalarda o‘quv motivatsiyasi hamda bilim olishga bo‘lgan qiziqish yetarli darajada shakllanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, respondentlarning ma’lum qismi fanlarni o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha yoki past ekanligini qayd etgani ayrim talabalar uchun mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, amaliy mashg‘ulotlar sifati va individual akademik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ayrim fanlarda murakkab mavzularni sodda va amaliy yondashuvlar asosida tushuntirish, interaktiv metodlardan foydalanish hamda talabalar bilan individual ishlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.






20. Mutaxassislik fanlari o‘tiladigan auditoriyalarning dars o‘tish uchun mosligi bo‘yicha

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning **43,6 % i (1546 nafar) mutaxassislik fanlari o‘tiladigan auditoriyalar to‘liq mos** ekanligini bildirgan. Shuningdek, respondentlarning **45,5 % i (1613 nafar) auditoriyalar qisman mos ekanligini** qayd etgan. Respondentlarning **10,9 % i (386 nafar) esa auditoriyalar dars o‘tish uchun umuman mos emasligini** bildirgan.



Mazkur natijalar universitetda auditoriya va moddiy-texnik infratuzilma bo‘yicha muayyan ijobiy holatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq respondentlarning deyarli yarmi auditoriyalarni faqat qisman mos deb baholagani ayrim o‘quv xonalarida texnik jihozlar, qulay sharoitlar, zamonaviy o‘quv vositalari hamda amaliy mashg‘ulotlar uchun zarur infratuzilma yetarli emasligini anglatadi. Shuningdek, auditoriyalarni umuman mos emas deb baholagan respondentlar ulushi mavjudligi ayrim binolarda moddiy-texnik bazani yangilash, raqamli texnologiyalar bilan jihozlash hamda ta’lim muhiti sifatini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirish uchun o‘quv infratuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish muhim ekanligini anglatadi.

20. Mutaxassislik fanlari o‘tiladigan auditoriyalar (xona, jihozlar, sharoit) dars o‘tish uchun qanchalik mos?



	Aniq fanlar oliy maktabi	Filologiya	Harbiy ta'lim	Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim	Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim	Professional ta’lim va san’at	Tabiiy fanlar	Tarix
Qisman mos	159	521	26	223	371	107	115	91
To‘liq mos	152	331	89	181	353	91	251	99
Umuman mos emas	25	199	4	43	67	9	8	30

21. O‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha takliflar tahlili

Talabalar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar tahlili shuni ko‘rsatadiki**, respondentlarning asosiy qismi ta’lim jarayonini yanada amaliyotga yo‘naltirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash** hamda **interaktiv metodlarni keng qo‘llash zarurligini** ta’kidlagan. Ayniqsa, **“amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish”**, **“nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash”**, **“master-klass va ekskursiyalar tashkil etish”** kabi fikrlar eng ko‘p uchragan takliflar qatoriga kiradi. Bu esa talabalar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy tajribaning muhim o‘rin tutishini anglatadi.

Shuningdek, ko‘plab respondentlar auditoriyalarni **zamonaviy texnik vositalar** bilan jihozlash, jumladan **smart doskalar, televizorlar, konditsionerlar, Wi-Fi** va **AKT** vositalarini yaxshilash zarurligini qayd etgan. Ayrim talabalar **mavjud texnik jihozlarning ishlamasligi** yoki **yetarli emasligi dars samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini** bildirgan. Mazkur holat **universitet moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish zarurligini** ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, respondentlar o‘qitish jarayonida **zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kreativ va interaktiv metodlardan keng foydalanish, talabalar bilan ochiq muloqotni rivojlantirish** hamda **individual yondashuvni** kuchaytirish lozimligini ta’kidlagan. Ayrim fikrlarda **talabalarni rag‘batlantirish, motivatsion uchrashuvlar, zakovat va ilmiy tanlovlarni ko‘paytirish** taklif etilgan. Bu esa ta’lim jarayonida talabalarning faolligini oshirish va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ehtiyoj mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, ayrim respondentlar **formaga va davomatga ortiqcha e’tibor qaratilishi, ortiqcha yuklama va byurokratik jarayonlar mavjudligi** haqida fikr bildirgan. Talabalar fikricha, **asosiy e’tibor bilim sifati, kasbiy tayyorgarlik va ta’lim samaradorligiga qaratilishi** maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, talabalar tomonidan bildirilgan takliflar oliy ta’lim muassasasida o‘qitish sifatini oshirish uchun amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.